

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O.R.Mehmonova	
Dialogik nutq va uning birliklari.....	258
N.Y.Ortiqova	
Tovushga taqlid so'zlarning lingvopoetik xususiyatlari (Anvar Obidjon asarlari misolida).....	262
F.S.Karimova	
Fanlararo yondashuv bilingvismni o'rganish metodologiyasi	268
N.M.Karimova	
Prose in english and russian literature	273
R.X.Xayitova	
Lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan nostalgik leksik birliklarning tahlili.....	278
S.A.Toshmatova	
Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan Chayon" romanining inglizcha tarjimasida metaforaning qo'llanishi	283
D.N.Abduvaxabova	
Kompyuter lingvistikasida emotiv so'zlarni aniqlash va ularning tarjimasi.....	287
Г.А.Воҳидова	
Этимологияя баъзе калимаҳо дар “Фиёс-ул-лугот”-и Муҳаммад Фиёсиддин.....	290
Л.Т.Галимуллина, Ш.И.Иброхимова	
Исследования влияния языковых контактов на тюркские языки: история и классификация	296
Н.К.Аббасова, Ш.АТожибоева	
Роль медиа в образовании.....	303
D.G'.Gafurova	
Zamonaviy hikoyalarda peyzaj tasviri.....	307
Z.Akbarova, Z.M.Sobirova	
O'qish tezligi va matnni tushunish: neyropsixolingvistik nuqtayi nazardan.....	311
Z.A.Akbarova, D.T.Ziyoidinova	
Afaziya turlari tahliliiga neyropsixolingvistik yondashuv.....	315



**ABDULLA QODIRIYNING “MEHROBDAN CHAYON” ROMANINING INGLIZCHA
TARJIMASIDA METAFORANING QO’LLANISHI**

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТАФОРА В АНГЛИЙСКОМ ПЕРЕВОДЕ РОМАНА АБДУЛЛЫ
КАДИРИ «СКОРПИОН ИЗ АЛТАРЯ»**

**THE USE OF METAPHOR IN THE ENGLISH TRANSLATION OF ABDULLA QADIRI'S
NOVEL "THE SCORPION FROM THE ALTAR"**

Toshmatova Saida Abdumutalli qizi 
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Badiiy adabiyot so'z vositasida tasvirlaydi va shu tasvir orqali ifodalaydi. Badiiy asarlarni badiiy tasvir vositalarisiz tasavvur qilishimiz mumkin emas, chunki ular yordamida asarda tasvirlanayotgan narsani jonli tasvirlash, his-tuyg'u va kechinmalarni yorqin ifodalash mumkin. “Mehrobdan Chayon” romanini o'qir ekanmiz badiiy obraz vositalaridan naqadar o'rinni foydalanilganini tushunamiz, ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida ham tarjimon tomonidan ushbu vositalarni qayta tiklay olish uchun harakat qilinganiga guvoh bo'lamiz. Ushbu maqolada “Mehrobdan Chayon” romanining ingliz tiliga tarjimasidagi badiiy tasvir vositalarining ahamiyati va ularning matnning umumiyligi ta'siriga qanday hissa qo'shishini o'rganamiz.

Аннотация

Художественная литература описывает через слова и выражает через этот образ. Мы не можем представить себе произведения искусства без средств художественного изображения, поскольку с их помощью можно ярко описать то, что изображено в произведении, ярко выразить чувства и переживания. Читая роман «Скорпион из алтаря», мы понимаем, насколько уместно использованы средства художественной образности, и становимся свидетелями того, как переводчик пытался восстановить эти средства в процессе перевода на английский язык. В этой статье мы исследуем важность художественных образов в английском переводе романа «Скорпион с алтаря» и то, как они способствуют общему эффекту текста.

Abstract

Fiction describes and expresses through words. We cannot imagine works of art without means of artistic imagery, because with their help we can vividly describe what is being described in the work, vividly express feelings and experiences. Reading the novel “The Scorpion From the Altar”, we understand how appropriate the means of artistic imagery are used, and we witness the efforts made by the translator to restore these means in the process of translating into English. In this article, we will study the importance of means of artistic imagery in the translation of the novel “The Scorpion From the Altar” into English and how they contribute to the overall effect of the text.

Kalit so'zlar: badiiy tasvir vositasi, metafora, metonimiya, konnotativ ma'nojonlantirish, sinestetik.

Ключевые слова: художественные средства изображения, метафора, метонимия, коннотативное значение, аниматсия, синестетика.

Key words: artistic means of representation, metaphor, metonymy, connotative meaning, animation, synesthetic.

KIRISH

Yozuvchi tomonidan yaratilgan har bir asar, shaksiz, xalqning o'sha davrdagi madaniyati, urf-odati, turmush-tarzi va ijtimoiy-siyosiy vaziyatini ifodalaydi. Shuningdek, asarda qo'llanayotgan har qanday tasviriy ifodalar yozuvchining so'z san'ati qay darajada boy ekanligini ko'rsatib beradi. Yozuvchining qanchalik so'zamoligini o'zga tilda ham aynan ko'rsata olish esa tarjimondan ulkan mashaqqatni talab etadi. Ushbu fikrimizni dalillash uchun A. Mo'minovaning quyidagi jumlalarini keltiramiz: “Tarjima bilan shug'ullanuvchi shaxs, ya'ni tarjimon ikki til, ikki millat o'rtasidagi ko'prikdir, uning tarjima qilish qobiliyati orqali xalqning ,millatning eng nozik qirralari aks ettiriladi.”(A. Mo'minova. 2016.)

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Badiiy tasviriy vositalar badiiy adabiyotda emotsiyonallikni namoyon qiladi. Metafora, metonimiya, sinekdoxa, mubolag'a, sifatlash, jonlantirish, o'xshatish, parafrazalar ma'nou ko'chish turlari hisoblanadi. Badiiy tasvir vositalari deganda, eng avvalo, ko'chimlar mavzusiga to 'xtalamiz. Shomaqsudov A. fikriga ko'ra ko'chimlar — adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, shuningdek ekspressivligini kuchaytirish uchun bir narsaning belgisini, nomini ikkinchisiga ko 'chirish yoki so'zlarning umuman ko'chma ma'noda ishlatalishi hisoblanadi. So'z ma'nosining ko'chish jarayonlari turli ko'rinishlarda voqe bo'ladi, bu jarayonlar va ularning natijalari sifatida yuzaga keladigan hodisalar ,bu hodisalarning turlari, o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalaro 'zbek tilshunosligida batafsil o'rganilgan[1]. Ushbu maqolada biz tahlilga tortgan metafora badiiy tasvir vositalari - ko'chimlarning keng qo'llaniladigan turi hisoblanadi. Bizga ma'lumki tilshunoslikda metafora - voqe - hodisalar hamda narsa- buyumlar o'rtasidagi o'zaro o'xhashlikka asoslangan ma'nou ko'chish turi hisoblanadi. Tilshunoslikda metaforaning ikki turi, ya'ni lingvistik metafora hamda xususiy-muallif metaforalari farqlanadi. Til taraqqiyoti bilan bog'liq hodisalar lingvistik metafora hisoblanadi. "Bunday metaforalar asosan, atash, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda uslubiy bo 'yoq, ekspressivlik, binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabat aks etmaydi." [2] Bunday metaforalarda ma'lum bir so'zning ma'nou doirasi kengayadi, shuningdek, yangi tushunchalarni atash uchun foydalaniadi. Xususiy – muallif metaforalari esa o'quvchining estetik maqsadi, ya'ni borliqni subyektiv munosabatini qo'shib ifodalagan holda nomlashi asosida yuzaga keladi. Ular uslubiy jihatdan bo'yoqdorlikka va voqelikni obrazli tasvirlash xususiyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham badiiy matnda qahramonning his-tuyg'ularini ta'sirchan, yorqin bo'yoqlarda, aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi. Xususiy- muallif metaforalarida hamisha konnotativ ma'nou mavjud bo'ladi. "Metafora orqali ma'nou ko'chishida konnotativ ma'nou yorqinroq aks etadi. Masalan, ot, eshshak, qo'y, it, bo'ri,tulki, yo'lbars, boyo'g'li, musicha, burgut,lochin, qaldirg'och, bulbul kabi hayvon va qushlarning nomi bo'lgan leksemalar mavjudki, bu so'zlar o'z ma'nosidan tashqari, ko'chma ma'noda juda keng qo'llaniladi.

Mazmuniy jihatdan esa metaforalarning uch turga bo'lismiz mumkin: odatiy metaforalar, jonlantirish hamda sinestetik metaforalar.

Badiiy adabiyotda jonlantirish badiiy nutqda obrazlilikni aks ettiruvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. "O'zbek tili stilistikasi" da "Kishilarning harakatlari , his-tuyg'ulari, so'zlash va fikrashchlari jonsiz predmetlarga ko'chirilishi" ga jonlantirish deyilishi ta'kidlanadi. Mumtoz adabiyotimizda jonlantirishning ikki turi farqlangan.

1. Tashxis deganda biz - shaxslashtirish, jonsiz narsalarni insonlarday qilib ta'svirlashni tushunamiz. She'riy asarlarda tashxisdan voqelikni obrazli tasvirlash maqsadida foydalaniadi. Ushbu usulga murojaat etishdan bosh maqsad, albatta, kitobxonga voqelikni tushunishni osonlashtirish, ekspressivlikni oshirish hamda rangsiz ifodadan qochish hisoblanadi.

Shuningdek, jonsiz predmetlarga insonlarga murojaat qilgandek munosabatda bo'lishni ham jonlantirishning bir turi deb hisoblashimiz mumkin. Adabiyotshunoslikda ushbu hodisani biz apastrofa deb ataymiz. Bunda narsa- buyumlar jonlantirilmaydi , aksincha biz faqat ularni jonli deb tasavvur etishimiz mumkin. Bu usul esa qahramonning hech kimga aytolmagan ichki kechinmalari va dardlarini oshkor qilish uchun xizmat qiladi.

2. Intoq - nutq egasi sifatida tasvirlash, insonlardek gapirtirish hisoblanadi. Intoq bolalar she'riyatida hamda hikoyalarda, shuningdek, ertak va masallarda ko'p uchraydi.

"Sinestetik metaforalarda bir sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushuncha boshqa sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa- tushunchaga o'xshatiladi, yaqinlashtiriladi va shu asosda ko'chma ma'nou yuzaga keladi. Masalan: shirin tabassum, shirin gap, shirin uy; engil tabassum, engil nigoh, engil qadam, og'ir tush, og'ir gap, og'ir masala kabi. Bu misollarda keltirilgan shirin, engil, og'ir sifatlarida sinestetik metafora sodir bo'lgan. Maza- ta'm ma'nosini bildiruvchi "shirin" va o'Ichovni ifodalovchi "engil" so'zlari "yoqimli" ma'nosida, " Og'ir" so'zi esa "yoqimsiz" ma'nosida kelgan"[5].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Original asar matnidagi: "Istiqlolning shirin xayollarig'a ko'milgan holda maxdum asr namozi uchun tahorat olar edi." (Mehrobdan chayon.2019; 35-bet.)

TILSHUNOSLIK

gapi esa "Mahdum was having ablution thinking about the sweet dreams of future."(Mahdum kelajak haqida shirin hayollarga berilib tahirat olayotgan edi) (The Scorpion from the Altar.2019; page -27) tarjima tilida qayta yaratilgan. Ushbu namunadagi "shirin xayollarig'a" tasviriy ifodasi sinestetik metaforaga misol bo'ladi.Chunki "shirin" so'zi maza-ta'mni ifoda etuvchi so'z hisoblanib, asarda " yoqimli" ma'nosida keladi.Tarjimon ushbu sinestetik metaforani " shirin xayollar" – "the sweet dreams" tarzida muqobil mosliklar, ya'ni asliyat tilidagi metaforaning tarjima qilinayotgan tilda to'liq mos keluvchi ekvivalentini tanlash usulidan foydalanib, asarning ifoda darajasini saqlab qolish va tarjimani idiomatik qilishga harakat qilganligini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu misoldagi: "Albatta Solih maxdum **og'irroq kasbni** uxda qilolmas, imoratka bo'lса soqoli chiqmag'anliqdan yarolmas edi." (Mehrobdan chayon.2019; 14-bet.) jumlesi tarkibidagi "**og'irroq kasbni**" metaforik birikmasi tahliliga to'xtalamiz.Yozuvchi tomonidan metaforaning sinestetik turi qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin. "Og'ir" so'zi vazni katta bo'lgan tosh, tosh bosadigan; vaznli, vazmin ma'nolarini anglatadi. Asliyat matnida esa bu so'z kasbga nisbatan determinant bo'lib kelgan va ko'p kuch yoki bilim talab qiladigan; qiyin, murakkab; mashaqqatli, sermashaqqat degan mazmunda qo'llangan. Ingliz tilida esa bu ma'nolarni " responsible job, difficult work, hard work," kabi leksik birliklar berishi mumkin.Tarjimon tomonidan esa "For sure Solikh Mahdum was not able to manage a serious work."(Albatta Solih maxdum jiddiy ishni uddalay olmasdi) (The Scorpion from the Altar.2019; page -12)tarzida o'girilib, "serious work" variant tanlangan. Orginal matn va tarjimada matnlararo yanada mushtaraklikka erishish uchun "responsible job" yoki "hard work" variantlari bilan berishni taklif qilgan bo'lardik.

Original asardagi: "O'g'ul yigirmaga, qiz o'n beshka etdimi – onalarning dardi **kelin va kuyav savdosи** bo'lib qoladir." (Mehrobdan chayon.2019; 14-bet.) jumlesi tarjima matnida: "As soon as a son was twenty and a daughter was fifteen ears old,mothers always started thinking about their children's marriage." (O'g'il yigirmaga va qiz o'n besh yoshga etishi bilan onalar har doim farzandlarining to'yi haqida o'ylashni boshlaydilar.)(The Scorpion from the Altar.2019; page - 12) deb beriladi. Ushbu gapda "kelin va kuyov savdosи" deya metaforaning ikkita belgi-xususiyat o'rtasidagi o'zaro o'xshashlik asosida ma'no ko'chish turi qo'llangan . "kelin va kuyov savdosи" "birikmasini xususiy- muallif metaforasi deb olishimiz mumkin, chunki bunda metafora denotativ ma'nodan ko'ra ko'proq konnotativ ma'noni ifodalab, uslubiy jihatdan bo'yoqdorlikka va voqe'likni obrazli ta'svirlash uchun xizmat qilgan. "savdo" so'zi izohli lug'atlarda 'tovarni sotish, ayirboshlash bilan bog'liq bo'lgan ikki tomonlama munosabatga doir muomala; oldi-sotdi, savdo-sotiқ" deb izohlanadi.Asliyat matnida esa bu so'z "to'y qilish" yoki " o'g'ilni uylantirish, qizni turmushga berish" ma'nosida keladi, "kelin va kuyov" so'zlari esa bu so'zga determinant sifatida qo'llanadi.Tarjimon tomonidan esa ushbu metaforik birlik "children's marriage" tarzida qayta tiklanadi. Tarjimada asarning yozuvchi nazarda tutgan ayni ma'nosini saqlash uchun esa "farzandlarning to'yi" shaklida qo'llanilib, metaforalarning tarjima qilishning almashtirish usulidan foydalilanildi ya'ni asliyat tilidagi ma'no etkazish vositalari o'girilayotgan tilda ma'lum ma'noda yaqinroq mazmunni ifodalovchi vositalar bilan almashtirilgan.

Quyidagi parchani tahlil qilsak: "Shu qozixona mirzolari, baayni hikoyamizning mavzu'i bo'lg'an Xudoyer saroyi munshiylarining **kichkina nusxalari** edilar." (Mehrobdan chayon.2019; 67 -bet.) Ushbu parchadagi "kichkina nusxalari" leksik birligi xususiy-muallif metaforasi hisoblanadi va yozuvchi tomonidan asar leksikasi ta'sirchanligini yanada boyitish, uslubiy sayqal berish va bo'yoqdorlikni oshirish uchun qo'llangan. "Nusxa" leksik birligini izohlasak, quyidagi ma'nolarni anglatadi.: 1.Bir turdag'i narsalar haqida tasavvur beradigan namuna.2.Biror salbiy toifaga mansub odam. "Kichkina nusxalari" metaforasining kontekstual ma'nosiga to'xtalsak, yozuvchi qozixonadagi mirzolarni ta'riflashda ularni Xudoyer saroyi munshiylaridan qolishmasligini, "kichkina" so'zini qo'llash orqali faqat mansab borasida ularga nisbatan quyi o'rinda turishini ta'kidlab o'tadi.Tarjimon tomonidan quyidagicha qayta tiklanadi: "And the mirzos at Khudayar's palace were the copies of those mirzos at kazikhanas." (Va Xudoyerning saroyidagi mirzolar qozixonalardagi ushbu mirzolarning nusxalari edi.)(The Scorpion from the Altar.2019; page - 57). Demak, bizning tarjimonimiz "nusxalari" leksikasini "copies" tarzida o'giradi, lekin biz yuqorida ta'rif berib o'tgan asar mazmuniga ta'sir etuvchi "kichkina" so'zi tarjimada aks ettirilmaganini ko'rishimiz mumkin. G'arb tilida o'qiyotgan kitobxon qozixona mirzolari va saroy munshiylarini mansab borasida ham aynan bir xil deya qabul qilishi mumkin. Tahlillarimiz orqali qisman tarjima amalga

oshganini ko'rishimiz mumkin, chunki metafora tarjimasidan tashqari "baayni hikoyamizning mavzu'i bo'lg'an" qismi ham tarjimada aks ettirilmagan. Bu esa, albatta, axborot yo'qotish jarayoniga olib kelgan. O'z variantimiz sifatida quyidagi tarjimani taklif qilishimiz mumkin: "These mirzos were the tiny copies of the mirzos at Khudayar's palace who were considered as the topic of our story".

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Mehrobdan Chayon" romanining inglizcha tarjimasida badiiy tasvir vositalaridan keng foydalanilgan va bu, albatta, asarning uslubiy bo'yoq dorligi, o'quvchiga tasir etish kuchini oshirgan. Abdulla Qodiriy tomonidan "Mehrobdan Chayon" romanida qo 'llangan metafora, metonimiya va mubolag'a, shuningdek, boshqa tasviriy vositalar asar leksikasini yanada boyitgan va uning ekspressivligini oshirgan, tarjimon tomonidan g'arb kitobxoniga etkazishda ushbu vositalarni to'g'ri tarjima qilish romanning asl mazmunini saqlab qolish, badiiy qimmatini yo'qotmasligida muhim rol o'yнaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. M. Yo'ldoshev .Badiiy matnning lingvistik tahlili-Toshkent-2007
2. Mukarramov M.O'zbek tilida o'xshatish._ T 1976, 13-b.
3. MirtajiyevM. Переносные значения и их манифестатсия в узбекском языке.АДД.-Т. 1989
4. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon.Toshkent-2019;
5. -2 ma'ruza. Konseptual metafora va konseptual integratsiya nazariyalari <https://hozir.org/zamonaviy-lingvistika.html?page=2>